

ISSN 2091 – 5616

AGRO ILM

2-сон 1801, 2022



3.ХАФИЗОВА. Богдорчиликка иктинослашган фермер хўжаликларини ривожлантириш ва ер майдонларини ташкил этишини такомиллаштириш.....	61	К.КАДИРОВ, А.КУШЕВ. Электр энергияси истеъмолида вақт бўйича табакалаштирилган тарифлардан тўғри фойдаланиш санарадорлиги.....	89
Б.САЙПОВА. Сув фонди ерлари ҳолатини таҳлил қилинча масоғадан зондлашнинг аҳамияти.....	63	А.МАХАМАТХОНОВ, Н.ИСЛАМБЕКОВА. Влияние давления, вакуума и температуры на воздухопроницаемость коконной оболочки.....	91
С.ХУСАНОВ, Э.ХАЙДАРОВ, Н.ЖУРАЕВА. Тупрок агрофизик хоссалари ўзгаришига сугоришлар сонининг таъсири.....	64		
Д.ҚУТЛИМУРАТОВА. Тупроқнинг сув ўтказувчанилигига алмашлаб экиш тизимига киритилган экинларнинг таъсири.....	66		
М.САТТОРОВА. Сугориладиган кумли чўл тупрокларининг унумдорлиги.....	67		
Ш.ХАМИДОВА. Ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилашда фитомелиоратив тадбирларнинг самарадорлиги.....	68		
И.МУСАЕВ, А.ХАМРАЛИЕВ. Геофазовий таҳлил орқали сугориладиган ерларда тупрок шўрланишини баҳолаш, моделлаштириш ва хариталаш.....	70		
Ю.УСМАНОВ. Фойдаланишига қайта киритилган деградацияга учраган сугориладиган ерлардан самарали фойдаланишини ташкил қилиш тадбирлари.....	71		

МЕХАНИЗАЦИЯ

О.РАХМАТОВ. Мола-текислагичнинг дала юзасида майн тупроқ қатламини ҳосил қиласидиган мосламанинг параметрларини асослаш.....	73	U.BERDIMURODOV, N.XOLIQOVA, P.BERDIMURATOV, B.XAKIMOV, N.RAZAKOV. Agrar sohada mehnat resurslarining shakllanish xususiyatlari.....	93
З.СОБИРОВ, А.ПАРДАЕВ, А.ЭШДАВЛАТОВ, И.КАРАБОЕВ. Стабилизация разрядных процессов в электрических полях электрофильтров.....	75	С.АБДУҚОДИРОВА. Тошкент вилояти Кўйи Чирчиқ туманида пахтачилик агрокластерини ташкил этиш хусусиятлари.....	95
М.ТОШБОЛТАЕВ, Ж.АЧИЛОВ, Х.МИРЗАБДУЛЛАЕВ, Т.ХАМРАҚУЛОВ, Б.ЭГАМНАЗАРОВ. Агрокластерлар учун рационал машина парки ва таъмилаш-хизмат кўрсатиш базасини асослашнинг илмий-муҳандислик йўналишлари.....	77	B.ALTMISHOV, O'.NUROV. Texnik jihaldan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikallash va metrologiya milliy tizimini takomillashtirish chora-tadbirlarini qishloq xo'jaligida qo'llash lo'g'risida.....	97
Х.МИРЗАБДУЛЛАЕВ. Сабзавотчилик кластерларининг хусусий машина парки ва таъмилаш-хизмат кўрсатиш базасини асослаш тамойиллари.....	78	A.ABDURAXMONOV, J.UNGALOV. Qishloq xo'jaligida meva-sabzavot mahsulotlarni yetishtirishda Global G.A.P standartining ahamiyati.....	97
Ф.МАМАТОВ, А.КАРИМОВ. Илдизмевали экинларни йигиб-териб олиш техник воситаларининг таҳлили.....	80	И.ҚЎЗИЕВ, И.АВАЗОВ. Xalqaro standartlар асосида молиявий ҳисоботни трансформациялаш жараёйини тақомиллаштириш.....	98
Б.ТўЛАГАНОВ, А.БОЗОРБОЕВ. Чўл яйлов ўсимликлари урутини йигиширувчи машинанинг дастлабки синов натижалари.....	81	Ж.РОЗИҚОВ. Мева-сабзавотчилик кластерларини бошқариш механизмининг ҳозирги ҳолати.....	100
Ж.АЧИЛОВ. Кўчма устахонадан фойдаланиши даражасини оширишнинг эҳтимолий-статистик тамойилларини ишлаб чиқиш.....	83	С.МЫРЗАТАЕВ, Ж.АТАЕВ. Қишлоқ ҳўжалигининг Қорақалпогистон Республикаси иккимой-иктисодий тараққиётини таъминлашдаги роли.....	102
F.RAXMONOV. Chigilni lozalash, linterlash jarayonlari.....	84	C.ЭШМАТОВ. Жаҳонда озиқ-овқатлар хавфисизлигини таъминлаш масалалари.....	104
Н.УМИРОВ, А.НАЖИМАТДИЙНОВ. 1-, 4-синф трактор двигателининг совутиш тизими ишлашини баҳолаш.....	85	M.РАХМАТАЛИЕВ, Д.ТАЛИПОВА. Чорвачилик соҳасини давлат томонидан ривожлантиришнинг молиявий-иктисодий механизмларидаги ҳозирги ҳолат.....	106
П.УТЕНИЯЗОВ, А.ЭШДАВЛАТОВ, Н.ОМОНОВ, Р.ТОШМУРОДОВ. Комбинациялашган агрегат ўғитни кўмадиган ишчи органларининг ўзаро жойлашиш параметрларини асослаш.....	87	А.ЯДГАРОВ. Чорвачилик тармоғини сугурталаш — озиқ-овқат хавфисизлигини таъминлашнинг муҳим омилидир.....	107
		G.SHERTAYLAQOV, S.MURADOVA. Qishloq xo'jaligi ekinlarining namlijini aniqlash usullari.....	109
		Ж.ҚУРБОНОВ, Ш.ЮСУПОВ, Ю.МАҲМАДИЯРОВА. Мева ва сабзавотларнинг электр ўтказувчанилигини аниқлаш.....	110
		Н.ЗУФАРОВА. Олий таълимда стратегик ва оператив бренд капиталини бошқариш.....	113
		A.SAYDULLAYEV, D.SOLIJONOVA, O.SHOMURODOV, M.NOMOZOVA, U.NURULLAYEV. Oliy ta'limda talabalarning o'zlashtirish ko'satkichiga turli omillarning ta'sirini iqtisodiy baholash.....	115
		M.TURDIMURATOV. Turmush darajasini oshirish va kambag'allikni kamaytirish.....	117
		А.БАБАДЖАНОВ, С.БЕРДИЕВА. Сув ҳўжалигида инновацион фаолият харажатлари учун бухгалтерия ҳисобини ривожлантириш: илм-фан.....	119

Из рис. 4 видно, что по существующей технологии при продолжительном влиянии горячего воздуха происходит уменьшение пор коконной оболочки, что препятствует прохождению сушащего агента или резкого снижения воздухопроницаемости кокона. При этом увеличивается время, затрачиваемое для полной сушки коконов. При циклическом изменении давления сушки коконов видно другое явление, при каждом вакуумировании расширяются поры оболочки, что способствует быстрому прохождению теплового агента, в результате интенсифицируется процесс сушки кокона. Такой способ сохраняет природные свойства коконной оболочки, что можно наблюдать при существующем способе сушки коконов.

Выводы:

- на разработанной опытной установке установлено, что максимальное давление при пульсационной сушке должно составлять 0,20Мпа;
- при повышении давления происходит сжатие пор и ухудшение процесса сушки;
- при применении вакуума поры коконной оболочки расширяются, что интенсифицирует процесс сушки.

Ахматхон МАХАМАТХОНОВ, к.т.н.,
Нигора ИСЛАМБЕКОВА, д.т.н.,
Ташкентский институт текстильной и
легкой промышленности.

ЛИТЕРАТУРА

1. Браславский В.А. Капиллярные процессы в текстильных материалах.-М.: Легпромбытиздат, 1987.-109 с.
2. Севастьянов А.Г. и др. Моделирование технологических процессов. -М.: Легкая и пищевая промышленность, 1984.-324с.

UOT: 65 240

IQTISODIYOT

AGRAR SOHADA MEHNAT RESURSLARINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Рассмотрены условия различных форм собственности, особенности воспроизведения трудовых ресурсов в сельском хозяйстве, с учетом требований рыночной экономики. Определен трудовой потенциал трудовых ресурсов. Даны заключения по эффективному использованию трудовых ресурсов, повторное производство, а также использование трудовых сил. Также приведены предложения и заключения по сельхозпроизводству.

The peculiarities of reproduction of labor resources in agriculture in the conditions of different ownership with taking into account of the requirements in market economy were examined. Labor potential of labor resources. Conclusions on efficiency using of labor resources, re-production and also on utilizing of labor forces indirectly from ownership of forms were given. Proposals and inferences on agricultural production were either revealed.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligida ishchini takror ishlab chiqarish ularni qishloq xo'jaligida ish joylari bilan ta'minlash va samarali olib borishning asosiy manbai hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Joriy yilda davlat dasturlari doirasida hamda tadbirdorlikni rivojlanitarish orqali 500 mingta yangi ish o'rni yaratishni ta'minlashi zarur. Har bir tarmoq, soha, viloyat va tumanda yaratilgan tadbirdorlik sub'ektlari va yangi ish o'rnlari ana shu tuzilmalar rahbarlar faoliyatini baholashda eng asosiy mezon bo'ladi" deb ta'kidlab o'tgan edi. [1]

Muammoning dolzarbligi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari milliy iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanib borishini ta'minlovchi tarmoq hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi na qafat aholi uchun zarur bo'lgan iste'mol mahsulotlarini balki qayta ishlash tarmoqlari uchun ham zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi xomashyolarini yetkazib beradi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ishlab chiqarishning samaradorligi ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga sarflanayotgan xarajatlarga va mahsulotlarning sifatiga bog'iqliq. Bu iqtisodiy ko'rsatkichlarning samaradorligi qishloq xo'jaligida mehnat resurslarining tashkil topish va ulardan samarali foydalanishga bog'iqliq bo'lib, uning dolzarbligini ifoda etadi.

Muammoning xorijiy olimlar tomonidan o'rganilganligi. Mehnat resurslarining qishloq xo'jaligida tashkil topishi va ulardan samarali foydalanish muammolari xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan o'rganishi ham uning naqdor dolzarbligini yana bir bor isbotlaydi. Ular tomonidan insonning shaxsiy ijodkorligi, ijodkorlik qobiliyati, mehnat resurslari, mehnatni tejash [2], mehnat bozori, mehnat resurslarini baholashi uslubi, aholi bandligi va ishsizlik [3], mehnat bozorini shakllanishi, ishsizlarga yordam berish [4], mehnat resurslarining optimal miqdorini aniqlash [5] motivatsiya mehnati [6], mehnat resurslari bilan ta'minlash [7], ishchi inson kapitali [8].

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda iqtisodiyotni qanday mulkchilik shakllariga asoslanishidan qat'ly nazar ish kuchini takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarish jarayonining asosiy omilini tashkil etib, uning doimiy ravishda dolzarbligini ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligi tarmoqlarida takror ishlab chiqarishni quyidagi che bo'lib o'rganish zarur.

Birinchidan, bu tabiiy resurslar ishlab chiqarishning asosini ifoda etib, asosan, yerosti boyliklarini, qishloq va o'rmon xo'jaliklarini qamrab oladi. Ikkinchidan esa, tabiiy resurslarni undiruvchi tarmoqlar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotlarni tayyor iste'mol yoki yarimiste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog'iqliq bo'lsa, uchinchidan esa xizmat ko'rsatish tarmoqlari

bo'lgan savdo, transport, aloqa, ta'lif, sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat, maishiy va kommunal xizmat ko'rsatish qismlariga bo'linadi.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi natijasida iqtisodiyotning asosiy sektori bo'lgan, qishloq xo'jaligida tabiyus resurslardan samarali foydalanish asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish ularni qayta ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoq korxonalarini rivojlangan bo'lsa, bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida bu ikki sektorga nisbatan xizmat ko'rsatish sektori ularga nisbatan ustun darajada rivojlanish xususiyatiga ega bo'lisi kerak. Rivojlangan mamlakatlarda farovonlik uchun ijtimoiy va shaxsiy xizmat ko'rsatishni qanoatlanirish asosida ta'minlashda bu iqtisodiy sektor hajmi 60-80 foizni tashkil etmoqda. O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning uchinchi sektori bo'lgan xizmat ko'rsatish sohalari ham rivojlanib bormoqda. Mehnatga layoqatli yoshdagilarning shahar aholisi orasida o'sishi shu davri ichida 7,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, qishloq aholisida bu ko'rsatkich 10,9 foizni tashkil etgan. Mehnatga layoqatli kattalar bo'yicha bu ko'rsatkich 10,9 va 43,4 foizni tashkil etgan. Iqtisodiyotda band bo'lgan ayollar 2010-2019 yillarda 13,9 foizga, erkaklar esa 27,2 foizga ko'paygan. Iqtisodiyotda 2019 yil 1 yanvarda band bo'lganlarning 18,3 foizi davlat muassasalarida, 81,7 foizi nodavlat muassasalarda band bo'lgan [9].

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlarida ish kuchining bandligi, erkin raqobatga asoslangan bo'lishi uni tovar xisoblanishiga asosiy sabab, bo'lib uning mehnat qilish qobiliyatidan foydalanish uchun mulkdan uni ishga yollaydi. Ishchiring mehnat qilish qobiliyatini tovar bo'lib u mahsus tovar va daromad olishning asosiy manbay hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotining samarali rivojlanishini ta'minlash usuli bo'lib qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish kuchlarini takror ishlab chiqarishni amalga oshirish ularning mehnatga layoqatli bo'lgan qismi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlanirish evaziga ish joylari bilan ta'minlash zarur.

Qishloq ho'jaligida ishsizlikning oldini olish uning tarmoqlarini barqaror rivojlanirish asosida zarur bo'lgan ish joylari tashkil etish asosida ishsizlikni oldiniolish va ishlab chiqarish kuchlarini talabga monan ravishda ishlab chiqarish zarur.

Iqtisodiy tarmoqlarni, shu jumladan, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini va nomoddiy tarmoqlardan bo'lgan ta'lif, sog'liqni saqlash, uy-joy kommunal xo'jaligi, qurilish uchun zarur bo'lgan ish kuchiga bo'lgan talabni talab va taklifdan kelib chiqqan xolda istiqbollashtirish asosida respublikamizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotidagi mavjud bo'lgan muammollarning oldini olish yoki ularning salbiy ta'sirini pasaytirish mumkin.

Respublikamizda hozirgi bozor munosabatlari sharoitida mehnatga layoqatli yosh chegaralarini quyidagiicha belgilangan. Mehnatga layoqatli yoshning quyil chegarasi 16 yosh, yuqori chegarasi erkaklar uchun 59 yosh va ayollar uchun 54 yosh hisoblanadi. Shu yoshga ular kirganganlarda dam olish xuquqiga ega bo'ladi. Shu bilan birga ayrim ishlab chiqarish tarmoqlarida va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida band bo'lgan erkak va ayollarning nafaqaga chiqish yoshlarini hamma uchun belgilangan nafaqa yoshlariga nisbatan 5-10 yil ilgari belgilangan muddat bo'yicha mehnat stajlariga qarab nafaqaga chiqib pensiya olish xuquqiga ega bo'ladi. Bunga asosiy sabab ayrim sohalarda insonga yuqori ruhiy, fizioligik bosimlar ta'siri e'tiborga olinadi. Mehnat resurslariga birinchi va ikkinchi guruh nogironlari kirmaydi, ammo davlat tomonidan tan ollingen nogironlarga mehnat qilish uchun ruhsat berilgan shaxslar va pensiyaga chiqib

ishlayotgan shaxslar ham mamlakatimizning mehnat resurslarini tashkil etadi.

Respublikada qishloq aholisi tarkibida ishsizlikning oldini olishni ta'minlash qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi bilan bog'liq bo'lib, uning samarali rivojlanishiga zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlarni tayyorlash eng dolzarb muammo hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari uchun zarur bo'lgan kadrlarga bo'lgan talab doimiy ravishda talab va takrif asosida o'zgarib boradi. Buning asosiy sababi iqtisodiy raqobatning erkinligi bo'lib, u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida raqobatdosh mahsulotlarini ishlab chiqarishida natijasida o'zining samaradorligini ta'minlashlari mumkin. Ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarishda faqat davlat ermas, balki nodavlat mulkchiligiga asoslangan ishlab chiqarish sub'ektlari o'z mablag'lari hisobiga zarur bo'lgan kadrlarni tayyorlash va ish joylari bilan ta'minlash ishlarni olib borishlari kerak.

Qishloq xo'jaligida mehnat resurslarining bandligi ishlab chiqarish jarayonini asosiy ko'rsatkichini tashkil etadi. Mehnat resurslarini bandligi qishloq xo'jaligida quyidagi holatlarda bo'ladi:

- qishloq xo'jaligi tarmoqlarida mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan ish kuchlarining to'liq yoki to'liq bo'lmagan ish vaqtiga bandligida o'z mehnatnari asosida o'zlar uchun ish haqi, mulk egaligari uchun daromad keltirishida ifodalananadi;

- mehnat resurslarini bandligi o'z tomonqa yerlarda mehnat haqi olmasdan ishlashti natijasida daromad olishlari;
- mehnat resurslarini ayrim xususiy mulk sub'ekti ixtiyorida malum ishlarni bajarish asosida mehnatiga yarasha ish haqqi olib ishlashtirishda ko'rish mumkin.

Mehnat resurslaridan asosan ikki usulda shaxsiy tomorqalaridan yoki qishloq ho'jaligida ishlab chiqarish tomorgalarini korxonalarida foydalaniladi. Hozirgi bozor sharoitida ulardan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida foydalanish ham keng yoyilmoqda. Mehnat resurslarining asosiy qismi bozor iqtisodiyoti sharoitida yollanma mehnat shaklida faoliyatlarini olib boradilar. Ish xaqları pul yoki natural shaklida ular tomonidan qishloq xo'jaligida etishtirilayotgan mahsulotlari tariqasida amalga oshiriladi.

Mehnat resurslarining mehnatnari yollanma yoki o'zining xususiy xo'jaligida mehnat qilishdagagi farqlari quyidagilardan iborat bo'ladi. Yo'llarriba mehnat qilgan ishchi mehnatiga ko'proq ish haqi olishga intilsa, xususiy xo'jaligida band bo'lgan mehnat egasi ishlab chiqarish xarajatlarini ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga kamaytirish orqali olinadigan foyda darajasining o'sib borishini o'z mehnati orqali ta'minlashga intiladi.

Qishloq xo'jaligida mehnat resurslarini ish kuchiga aylanishining birinchi bosqichida jismoniy va ma'naviy jihatdan mehnat qilish qibiliyatiga ega aholi qismi mavjud bo'lsa ular ishlab chiqarish vositalari, zarur bo'lgan texnika va texnologiyalarsiz to'laqonli qishloq xo'jaligi ishchi kuchiga aylanmaydilar.

Ularning ish kuchlariga aylanishlari uchun ishlab chiqarish jarayonida ularning kasbiy mahoratlari va malakalarini e'tiborga olish asosida ish joylariga joylashtirilishi mehnat resurslarini shaklida ishga tushirilishi oqibatida ular ishchi kuchlariga aylanadilar.

Oqibatda qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishchi kuchlari o'zlarining mehnat qilish qobiliyatlarini asosida mehnat qilishlari natijasida iste'mol mahsulotlarini faqat natural holatda balki qiyamatlarini ham yaratadilar. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan mehnat resurslarining ish kuchiga aylanishi o'zining xususiyatlari ega. Bu xususiyatlarni quyidagilarda ifodalananadi:

- qishloq xo'jaligida ish kuchlariga bo'lgan talab mavsumiy tasnifiga ega bo'lishiha;

- mehnat resurslari faqat qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni amalga oshirilgandagina ular ish kuchlariga aylanadilar, qolgan vaqtida esa mehnat resurslari holatida qolishlarida;
- qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonining mavsumiyligi ish kuchiga bo'lgan talablarning ishlab chiqarish mavsumiga qarab tashkil topishiga bog'liq.

Qishloq xo'jaligida mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan mehnat resurslari mehnatga yaroqli bo'lgan layoqatlariini ifodalab u iqtisodiy tarmoqlar va mintaqalar bo'yicha iqtisodiyotni rivojlanishidan kelib chiqqan holda taqsimlanadi.

Dermak, mehnat salohiyati keng ma'noga ega bo'lib, u mehnat resurslarini shakkantiradi, ishlab chiqarish omillari sifatida ish kuchini ifodalab ijtimoiy munosabatning sub'ekti sifatida iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy omili hisoblanadi. Mehnat salohiyati iqtisodiy salohiyatining bir omili bo'lib undan faqat mehnat orqali uning qobiliyatidan foydalaniш mumkin. Mehnat salohiyati iqtisodiy salohiyatini xo'jalik amaliyotida uning asosiy kategoriysi bo'lib, uning miqdoriy va sifatiy darajasi moddiy-buyumlashgan, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishini ta'minlash mumkinligidan kelib chiqqan holda uni iqtisodiy salohiyatining asosiy omili sifatida qarash mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida ish kuchini takror ishlab chiqarish faqat ularning iqtisodiy talablarini qondirishni o'zi bilan kifoyalanmaydi balki ularni ishlab chiqarish, turar joylari infratuzilmalarini talab darajasida tashkil etish bilan birga yaratgan mehnatlarini mahsulotlarining iste'mol bozorida raqobatdosh bo'llishini ta'minlash uchun ularning ilmiy va kasbiy salohiyatlarini oshirish evaziga mehnat unumdarligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish asosida korxonalarning samaradorligini oshirish mumkin. Natijada ish kuchini bandligini ishlab chiqarishga zarur bo'lgan darajada belgilash, ortiq ish kuchlarini esa tarmoqlar yoki mintaqalar darajasida qayta taqsimlash zarur.

Qishloq xo'jaligida mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish na faqat aholini ko'payishini tug'ilish hisobiga erishish balki qishloq aholisini mehnat qilish va yashash sharoitlarini talab darajasida

bo'llishi asosida ularni sog'liqlarni ta'minlash, kasallikdar oldini olish asosida yashash davrini uzaytirish hisobiga qishloq aholisini va mehnat resurslarini ko'payishiga, samaradorligini oshirishga erishish mumkin. Qishloq xo'jaligi sharoitida xo'jaliklarning moddiy fondlarini o'sib borishi, mehnat unumdarligini va ishxaqlarini o'sib borishini ta'minlaydi. ishlab chiqarishda fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalanish asosida ish kuchini ish faoliyatida bandlik vaqtini kamaytirib borishi ham qo'shimcha ish kuchlarga bo'lgan talabini qondiradi.

Erkin raqobatga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida qishloq joylarida ish kuchini takror ishlab chiqarishi unga bo'lgan talab va taklif qonuniga asoslangan holda davlat va undan manfaatdor bo'lgan xo'jaliklar tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Xulosha va takliflar. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslarning shakllanish xususiyatlarini o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

qishloq xo'jaligi tarmog'iда mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan samarali foydalanish mehnat va tabiiy resurslarga uning asosiy vositasini bo'lgan foydalanish mumkin bo'lgan yer maydoniga va qishloq joylarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlab chiqarish va nomoddiy xizmat ko'satish tarmoqlarini rivojlantirishga bog'liq;

qishloq ho'jaligi tarmog'iда iqtisodiy faol aholini ish joylari bilan ta'minlashga bo'lgan talabni to'liq qondirmayotganligini ko'rsatadi;

mehnat resurslarining bandligi qishloq xo'jaligining asosiy ko'rsatikchi bo'lib, ish bilan bandlikni to'liq ta'minlash qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlash va turli ijtimoiy sohalar bo'yicha xizmat qilishni rivojlantirish evaziga to'liq bandlikka erishish mumkin .

Usmon BERDIMURODOV, PhD,

Nargiza XOLIQOVA, PhD, dotsent,

Paraxat BERDIMURATOV, PhD, dotsent,

Baxodir XAKIMOV, PhD, dotsent,

Nuriddin RAZAKOV, assistant,

"TIQXMMI" MTU.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. / Xalq so'zi, 2020 yil, 25 yanvar. -3-5 b
2. Axitov.M.K, Pixopetov . V.K. O polze vstrechnogo transfera konsepsiya sfer biznesa i nauk o cheloveka (Rossiyskoe predprinimatelstvo 2008, № 5-2 (111)-s 83-87)
3. Djavadov.R.D. S statisticheskie issledovanie ekonomiceskoy aktivnosti naseleniya v Azarbajjane. Rossiyskoe predprinimatelstvo 2010 № 12 (174) s 169-174.
4. Abduraxmonov.Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Toshkent. "Mehnat" 2004 y 75 bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining №01/06-06-20-469 ma'lumotnomasi.

УЎТ: 631.11:303.722.4 (575.111)

ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ҚУЙИ ЧИРЧИҚ ТУМАНИДА ПАХТАЧИЛИК АГРОКЛАСТЕРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

The article describes the features of the organization of agroclusters, aimed at organizing the rational and efficient use of available land resources.

Мамлакатимизда сўнгги тўрт йилда барча соҳалар, хусусан, саноатda илғор технологияларга асосланган инфратузилмани яратиш, айниқса, қишлоқ хўжалигига кластер тизимини кўплаб-куватлашга жиддий эътибор қаратилмоқда. 2017 йил 14 декабрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Тўқумачилик ва тикув-трикотаж саноатини жадал ривожлан-